

RADD UL-QOFIYA BADIY SAN'ATMI YOKI QOFIYA AYBI?

Orzigul HAMROYEVA

ToshDO'TAU, f.f.d., professor v.b.

DOI <https://doi.org/10.5281/zenodo.14804573>

Annotatsiya: Mumtoz qofiyaga oid arabiy, forsiy manbalarda qofiya va uning baytlar takomilidagi o'rni masalasiga jiddiy e'tibor qaratilgan. Qofiya ilmiga oid risola mualliflari bayt kompozitsiyasida qofiya muhim ahamiyat kasb etishi va uning mukammal bo'lishi ijodkor mahoratining belgisi ekanligini alohida ta'kidlashgan. Qofiya nafaqat shakl, balki mazmunni tashuvchi asosiy unsur sifatida "she'rning asosi" ekanligi qayd qilingan. Demakki, shoirning badiiy maqsadi bilan hamohang ravishda she'r mazmuni bevosita qofiyada aks etgan. Maqolada Alisher Navoiy ijodi misolida turkiy adabiyotdagi qofiyaning o'rni masalasi o'rganiladi.

Kalit so'zlar: Qofiya, radif, hojib, qofiya san'atlari, qofiya ayblari, qofiya harflari.

Аннотация: В арабских и персидских источниках классической рифмы серьезное внимание уделяется вопросу рифмы и ее места в развитии стихов. Авторы трактата по науке о рифме подчеркивали, что рифма играет важную роль в стихосложении и что ее совершенство является признаком мастерства художника. Отмечается, что рифма – это не только форма, но и основной элемент, несущий содержание и являющийся «основой стихотворения». Итак, в соответствии с художественной целью поэта, содержание стихотворения непосредственно отражается в рифме. В статье рассматривается роль рифмы в турецкой литературе на примере творчества Алишера Навои.

Ключевые слова: Рифма, радиф, хаджиб, искусство рифмы, ошибки рифмы, рифма букв.

Annotation: In the Arabic and Persian sources of classic rhyme, serious attention is paid to the issue of rhyme and its place in the development of verses. The authors of the treatise on the science of rhyme emphasized that rhyme plays an important role in verse composition and that its perfection is a sign of the artist's skill. It is noted that rhyme is not only a form, but also the main element that carries the content and is the "basis of the poem". So, in harmony with the poet's artistic goal, the content of the poem is directly reflected in the rhyme. The article examines the role of rhyme in Turkish literature on the example of Alisher Navoi's work.

Key words: Rhyme, radif, hajib, rhyming arts, rhyming faults, rhyming letters.

She'rda qofiyadosh so'zning takror kelishi poetikaga oid manbalarda she'rdagi nuqson, qofiya aybi sifatida keltirilgan. Shamsiddin Qays Roziy, Nosiriddin Tusiy, Ahmad Taroziy, Abdurahmon Jomiy, Atoulloh Husayniy risolalarida qofiyadosh so'zning bayt va misralarda qayta takrorlanishi o'zigacha bo'lgan manbalarda, arab va fors she'riyatida she'rning asosiy kamchiligi sifatida keltirilgani aytiladi. XIII asrda yaratilgan arabiy, forsiy manbalarda bu kamchilik jiddiy ayb sifatida keltirilgan bo'lsa, keyingi XIV-XV asr manbalarida buning qabul qilingan o'rinlari haqida ma'lumotlar keltiriladi. Xususan, lirik janrning shakliy xususiyati qofiyaning qayta takror qo'llanishining ravo bo'lishni belgilab beradi. Kichik lirik janrlar: ruboiy, qit'a, tuyuq, fard, muammo, lug'zda qofiyaning qaytishiga ruxsat berishmagan.

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Hajman kichik bo'lgan bu janrlarda baytlar soni kam bo'lgani bois shoirdan har bir bayt, misra uchun alohida qofiyadosh so'z keltirish talab qilingan. Qasida, masnaviy shaklli dostonlarda esa qofiyaning qaytishiga ijozat berishgan. Poetikaga oid manbalarda g'azal janrida qofiyaning qayta, takror qo'llanishiga mulohazali munosabat bildirilgan. Ba'zi olimlar g'azalda qofiyadosh so'zlardan qayta foydalanishga ruxsat bersalar, ba'zi olimlar buning ravo bo'lmasligini ta'kidlaydilar.

XV asr manbalarida esa adabiy jarayondagi o'zgarishlar asosida poetik qoidalarining o'zgarishga yuz tutganini ko'rish mumkin. Xususan, turkiy adabiyotda g'azalda qofiyaning qayta takror qo'llanishi poetik ayb sifatida emas, ijodkor mahoratining belgilisi sifatida qaralib, badiiy san'at sifatida e'tirof etila boshlandi [6, 35]. Bu holat badiiy san'at darajasiga ko'tarilishi uchun esa qofiyadan, uning takror qo'llanishidan shoir mohirona foydalana olgan bo'lishi kerak. Navoiy ijodida qofiyaning qaytishi – radd ul-qofiya shoir badiiy maqsadining go'zal namunasi sifatida san'at darajasida takomilga erishgan. Shoir g'azallarida radd ul-qofiyaning quyidagi holatlarda qo'llanganiga guvoh bo'lish mumkin:

1. *Qofiyadosh so'zga yangi ma'no bergan holda takror qo'llash;*
2. *Ta'kid ma'nosini kuchaytirish maqsadida qayta qo'llash.*

Ey manga jonbaxsh gulbargi taringdin toza ruh,
Toza-toza har biri shavqin solib ovoza ruh
Ruhi mahz ul tozavu tar sarvi ra'nodek qading,
Ne ajab bo'lsa ravon bo'lg'anda elga toza ruh.
Ko'yi gardidin o'lug jon topsa tong yo'q, negakim
Tufrog' o'ldi ko'yida behaddu *beandoza* ruh.

Navoiyning "Ruh" radifi bilan yozilgan ushbu g'azalida *toza* so'zi matla'ning ilk misrasida qofiyadosh so'z sifatida keltirilgan, ikkinchi baytda ham bu so'zdan qayta foydalanilgan. Shoir *toza* so'ziga alohida-alohida ma'no yuklagan. Matla'dagi *toza ruh* yangi ochilgan guldagi *toza ruh*, tozalik, beg'uborlik, bu beg'uborlik lirik qahramonga jonbaxsh. Keyingi ikkinchi baytdagi *toza ruh* esa el bilan bevosita bog'liq. El, xalq, insoniyat muhtoj bo'lgan toza iymon, g'ayrsiz, tamasiz muhabbat, agar elda mana shunday toza ruh bo'lsa, uning yo'li ham ravon bo'lishi shoir tomonidan mahorat bilan tasvirlangan.

Zuhd-u toat shahdini ahli zamon ko'rmas laziz,
Har ne nofi'dur, marizi *notavon* ko'rmas laziz.
Zulmat ahli g'aflat istarlarki olam komini
Uyqucha shabgir qilg'an *korvon* ko'rmas laziz.
Quti botin istakim, zohir g'izosi birla tab'
Bir zamon gar topsa lazzat, bir zamon ko'rmas laziz.

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Ushbu g'azalda ham *zamon* qofiyadosh so'zlari g'azal tarkibida qayta qo'llangan. Aslida bu so'zni g'azal tarkibida qayta qo'llangan deyish ham o'rinsiz, chunki bu so'zlar bayt mazmunidan kelib chiqqan holda turli ma'nolarda qo'llangan. Dastlabki baytda *zamon* so'zi *ahli zamon* birikmasi bilan bir butunlikda *zamon ahli* – zuhd va toatni xush ko'rmaydigan, dunyo ne'matlariga berilgan *zamon* kishilari ma'nosida kelgan, keyingi uchinchi baytdagi *zamon* so'zi esa payt ma'nosida *ba'zan* ravishiga sinonim sifatida ishlatilgan. Ba'zan, ba'zi paytda lazzat topsa, ba'zan lazzat, rohat ko'rmaydi mazmunida kelgan.

El tilidin jonima gar yuz balo *mavjud* erur,
G'am eman, gar ul qizil til tiyg'i *xunolud* erur.
Yuz uza siymin zanaxdoningda xatti mushkbo'y,
O'tqa qo'yg'an olmadin go'yoki chiqqan *dud* erur.
Jon berib oldim jununu ishq to bo'ldum fano,
Olloh-Olloh, ul ne xush savdo, bu ne xush sud erur.
Hajr bedodidin ul yuz shavqi ortar har necha
Kim, xazon osibidin gul yafrog'i *nobud* erur.
Kisvatedur xilqatim ishq ofati shaxsig'akim,
Rishtayi jon anda toru tori jismim *pud* erur.
Qilmading ahdingda bir ahdeki qilg'aysen vafo,
Bevafolar ahdi mundoq go'yiyo *ma'hud* erur.
Mehr isi bu mijmari feruzadin ko'z tutmakim,
Barcha qad shamshodi bu mijmar ichinda *dud* erur.

Shoir ushbu g'azali *dud* so'zining bir necha ma'nosidan go'zal tasvir yaratishda unumli foydalangan. G'azalning ikkinchi baytida keltirilgan *dud* so'zi bevosita xat – ma'shuqasining zanaxdoni (baqbaqa) ustidagi qora tuklariga bog'liq holda ishlatilgan. Shoir ma'shuqasining baqbaqasi ustidagi qora tuklarini o'tga qo'yilgan olmaning ustidagi qora dog'larga o'xshatadi. Olmaning olovga qo'yilgan holati tasavvur qilinsa, olovdan chiqqan *dud* – tutunlar olmaning ustini qoraytiradi. Ayni baytdagi *dud* so'zi xat – tukning qoraligi sifatida ko'rsatish maqsadi bilan keltirilgan. Keyingi baytdagi *dud* so'zi esa qorong'ulik, ko'rinmaslik ma'nosi bilan bog'liq. Mehr isini feruzadan qilingan mushk solinadigan xushbo'y idishdan kutmaslik kerakligini, barcha qaddi shamshodlar shu idish ichida qorong'ulikda ekanligi tasvirlanadi. Bu o'rinda shoir ma'shuqasini ferazudan qilingan mijmarga qiyos qilyapti va undan mehr kutmaslikka ishora qilyapti.

Bahor el gulga moyil, bag'rima yuz *xor* har soat,
Yetib har xoridin ko'nglumga ming *ozor* har soat.
Bu aqshom notavon ko'nglumdin, ey ahhob, o'lung voqif

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Ki, holidin borur za'f aylab ul *bemor* har soat.

Bo'lurmen uylakim, ko'rgan zamon vayron bo'lub ko'ngli

Boshimda yig'lag'ay ham yoru ham *ag'yor* har soat.

Emas vayronada har dam o'lardek holatim, vahkim,

Turubtur boshima emrulgali *devor* har soat.

Damo-dam za'fim andindurki, mujgoning xayolidin

Jarohatlig' ko'ngulga sanchilur bir *xor* har soat.

Ushbu g'azalda ham *xor* so'zining ikki marotaba qo'llangani ma'no va shaklda g'alizlik tug'dirmaydi. Balki bu so'zning ikkinchi bir ko'chma ma'nosi shoir mahoratidan darak beradi. Matla'da keltirilgan *xor* so'zi *bahor*, *gul* so'zlariga muvofiq *tikan* ma'nosida qo'llangan bo'lsa, keyingi baytda ma'shuqaning mujgoni – kipriklari bilan bog'liq. Shoir kipriklarni sanchiladigan o'qqa o'xshatyapti. Lirik qahramon, oshiq ma'shuqa iztirobida jarohatlangan va bu jarohati ustiga yana uning kiprigi xayoli ko'ngliga o'qdek sanchilyapti. Shoir kiprik shakli orqali o'qqa ishora qilyapti, mazmun va shaklni mutanosib holda ishlatib, o'ziga xos so'z o'yinini yuzaga keltirgan.

Baytlarda qofiyaning qayta qo'llanish o'rni qat'iy belgilanmagan, bu holat ijodkor ixtiyoriga havola qilingan. Ba'zan matla'da qo'llangan qofiya keyingi istalgan baytda takror qo'llanishi mumkin. Yoki g'azal baytlarining turli o'rinlarida qo'llanib, boshqa baytlarda qayta qo'llanish holatlari ham uchraydi. Xususan, Navoiy ijodida qofiyaning istalgan baytlarda qayta qo'llangan o'rinlarini uchratish mumkin. Biroq shoir ijodida matla'da qo'llangan qofiyaning maqta'da qayta qo'llanish holati nisbatan ko'p uchraydi. Holat ham shoirning badiiy maqsadi bilan bog'liq. Navoiy matla'da qo'llagan qofiyaning maqta'da qaytarish orqali ibtidoda aytilgan fikr, tasvir, tuyg'uni kuchaytirib, so'ngda qayta ta'kidlashni maqsad qilgan.

Ahli dil ollida dildor iltifoti *kamlig'i*,

Oncha sa'b ermaski, har noahl ila *hamdamlig'i*.

Gar o'g'urluq istamas la'ling dog'i jon naqdidin,

Bas nedur o'g'ri kebi payvasta qoshing *xamlig'i*.

Zulfi torin torta olmas kimsa ko'nglumdinki bor,

Berkroq jon rishtasidin ham aning *mahkamlig'i*.

Uylakim tun dudini ohim parishon ayladi,

Tong elidindur muanbar sunbulung *darhamlig'i*.

Har ne el ko'ngluga xurramlig', mening ko'nglumg'a g'am,

Kim, g'amingdin bo'lmish ul devonaning *xurramlig'i*.

Soqiyo, may berki, dardim zohir aylay mast o'lub

Kim, ichim qon ayladi ish sirrining *mubhamlig'i*.

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Gar Navoiy ayladi badmastlig‘, ey piri dayr,

Sen karam kam qilmag‘ilkim, ko‘ptur aning kamlig‘i.

Oshiqning oldida ma‘shuqaning iltifoti kamligidan yozg‘irgan lirik qahramon, bu iltifotning kamligi uchun oshiq ham karam ko‘rsatishda chekinmasligi, uni ozaytirmasligini ta‘kidlab, karam qancha qilinsa ham, oz, kam ekanligini ta‘kidlaydi.

Furqatingdin za‘faron uzra to‘karmen lolalar,

Lolalar ermaski, bag‘rimdin erur pargolalar.

Ko‘hi g‘am bo‘ldi Navoiy, lolalar gulgun sirishk

Tog‘ agar budur, bale, ashk o‘lg‘usidur lolalar.

Navoiyning ushbu g‘azalidagi devonadin qofiyadosh so‘zi shoirning ifoda uslubining o‘ziga xosligini yaqqol namoyon qilgan. Shoir oshiqning ma‘shuqa firoqida ko‘z yosh to‘kishini lolalarga o‘xshatadi. Lola yaproqlarini ko‘z yoshi tomchilariga o‘xshatadi. Tasvirdagi tiniqlik esa lola yaproqlari va ko‘zyoshi tomchilarining tez va oson to‘kilishida namoyon bo‘ladi. G‘azal maqta’sida ham lolalar va ko‘zyoshiga o‘xshatilgan lolalar qiyoslanadi. Gulgun, qip-qizil bo‘lgan lolalardan tog‘lar to‘lgan bo‘lsa, bu tog‘lar Navoiyning g‘am tog‘i va uning ustidagi lolalari gulgun ko‘zyoshlaridir.

Telbarab itkan ko‘ngul yoding‘a kirsar gohlar,

Yig‘lab el ko‘ngli buzulg‘udek chekarmen ohlar.

Ey bahori husn, eshitsang Navoiy ohini

Kerak, albatta, xazon elin sog‘insang gohlar.

Navoiyning o‘ziga xos tasvir uslubiga ega ushbu g‘azalida ham radd ul-qofiya san’ati qo‘llangan bo‘lib, shoir gohlar so‘zini ba‘zan ma’nosida ishlatadi. Oshiqlikdan telba ko‘nglini eslagan oshiq yig‘lab, ko‘ngli buzulgudek bo‘lib oh chekishini ta‘kidlaydi. Maqta’da esa Navoiy ma‘shuqaga “bahori husn” deb murojaat qilib, ma‘shuqa va o‘zining holatini tazod asosida tasvirlab, xazon elini sog‘insa, albatta, Navoiy ohini eshitishi kerakligini ta‘kidlaydi. Demakki, Navoiy ohi xazondan darak.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Navoiy qofiyadan shunchaki takror foydalanmagan, unga yangicha mazmun va ta‘kid yuklagan holda she’rga yangicha mazmun va ohangdorlik baxsh etgan. Shuning uchun ham turkiy adabiyotda takrorlar ifodaning asosiy unsuri sifatida takomilga erishgan.

Adabiyotlar ro‘yxati

(Использованная литература / References):

1. Alisher Navoiy. G‘aroyib us-sig‘ar. TAT.10 jildlik. 1-jild. -T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiyot uyi. 2013.
2. Alisher Navoiy. Badoye’ ul-vasat. TAT. 10 jildlik. 3-jild. -T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiyot uyi. 2013.

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

3. Alisher Navoiy. Navodir ush-shabob. TAT. 10 jildlik. 2-jild. -T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiyot uyi. 2013.
4. Atoulloh Husayniy. Badoyi' us-sanoyi' (Forschadan A.Rustamov tarjimasi) –T., 1981. -B.398
5. Hamroyeva O. Mumtoz qofiyaning nazariy asoslari. O'quv qo'llanma. -T: BOOKPRINT, 2022. -B. 155.
6. Hamroyeva, O. J. (2022). Classification of fine arts in "Hadoyiq us-sikhr". Scientific reports of Bukhara State University, 2022(1), 47-56.
7. Jalolovna, H. O. Correlation between the science of rhyme and the science of bade'. Scientific reports of Bukhara state university, 181.
8. Jalolovna, H. O. (2023). Shamsiddin Kaysi Razi's" Al-mo'jam fi maoyiri ash'ar ul-ajam" is an important source of poetics. Academia Repository, 4(11), 81-86.
9. Shamsi Qaysi Roziy. Al-Mo'jam fi ma'oyiri ash'oru-l-ajam. - Dushanbe: Adib, 1991. - Sah. 161.
10. Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziy. Fununu-l-balog'a. (Nashrga tayyorlovchi H.Boltaboyev, J.Jo'rayev) -T.: MUMTOZ SO'Z. 2016. -B. 244.